MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTASI (CENTRAL BANK DIGITAL CURRENCY): NAZARIY ASOSLAR VA XALQARO TA'RIFLARNING QIYOSIY TAHLILI	1156
Tashqo'ziyev Suxrob Abdurazzak o'g'li	
KORXONALARNI MOLIYAVIY INQIROZGA OLIB KELUVCHI SABABLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	1161
Bobomirzayev Isroil	
ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ, УСЛОВИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕАЛИЗАЦИИ.....	1165
АскарOVA Мавлуда Турабовна	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA MOLIYAVIY BOZOR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1171
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
BANK TIZIMIDA OPERATSION RISKLARNI BAHOLASH VA MONITORING MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	1176
Muxitdinova Difuza Farxodovna	
KO'P DARAJALI YONDASHUVNING MIKRO, MEZO VA MAKRO DARAJALARDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKLARINI ASOSLASH HAMDA MODEL ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK TAMOIYILLARI	1183
Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DAROMAD BAZASINING TARKIBI VA DINAMIKASI ("TURONBANK" ATB MISOLIDA)	1191
Togayev Salim Sobirovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI KAPITAL BAHOSINI MINIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARI	1196
Obidov Sanjar Omonxo'jayevich	
O'ZBEKISTON XIZMATLAR EKSPORTINING GEOGRAFIK TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: GRAVITATSION MODEL ASOSIDA TAHLIL	1202
Qodirjonov Adhamjon	



AKSIONERLIK JAMIYATLARDA MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITISH	1206
Suyunov Yorqin Bekmurodovich	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINING INSTITUTSIONAL OMILLARI	1212
Arifbayev Bobur Dilshodovich	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В РАМКАХ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030»	1219
Аблаева Валентина Борисовна	
FINANCING A GREEN UNIVERSITY: MECHANISMS, MODELS, AND STRATEGIC DIRECTIONS FOR SUSTAINABLE CAMPUS DEVELOPMENT	1227
I. Imomov, F.Nishonov	
ПОНЯТИЕ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УЗБЕКИСТАНЕ	1234
Шоев Алим Халмуратович	
ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME	1239
Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	
ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME	1239
Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSILAR HISOBIGA ASOSLANGAN XOLATDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI TASHKIL ETISH TARTIBI	1247
Xasanova Xusnoraxon Faxriddinova	
HUDUDIY MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ROLI VA UNING RIVOJLANISH MEKANIZMLARI	1251
Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ	1257
Менглиева Индира Баходировна	
ЦЕНООБРАЗОВАНИЕ НА ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМ РЫНКЕ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ	1261
Умарбеков Бахром Ботирбекович	
O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA "ALTERNATIVE RISK CAPITAL"NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)	1270
Jorabaev Jasur Abduraxmanovich	
O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA ALTERNATIVE RISK CAPITAL'NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)	1276
Jo'rabayev Jasur Abdurahmonovich	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BOSHQARUV KADRLARINING LIDERLIK SALOHİYATINI BAHOLASH MASALALARI	1282
Rasulov Shohruxbek G'ulomjon o'g'li, Ibragimov Isroil Usmonovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA MEVA VA SABZAVOT ISHLAB CHIQRISH KO'RSATKICHLARINING XO'JALIKLAR TOIFALARI BO'YICHA TAHLILI	1286
Majidova Dilnoza Bahromovna	
TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTEKLEKTNING (SI) TA'SIRI	1290
Begimqulov Javohirbek Jo'raqul o'g'li	
MINTAQADA SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMI VA ZARURLIGI	1300
Xodjaeva Feruza Komilovna	
TOSHKENT VILOYATI HUDUDLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI IQTISODIY FARQLAR TAHLILI	1305
Saidakbarov Saidazam Aziz o'g'li	
KORXONALARDA UMUM ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBİ	1309
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	



ONLAYN BRONLASH TIZIMLARI: TURLARI, XUSUSIYATLARI VA AJRALIB TURUVCHI BELGILARI	1314
S.S. Ismatillaeva	
BUDJET TIZIMI BUDJETLARI IJROSI USTIDAN MOLIYAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1320
Saidova Kamolat Farhodovna	
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ПОРОЖДАЮЩИХ ЖЕНСКУЮ ПРЕСТУПНОСТЬ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	1326
Нуриллоева Заррина Зокиржоновна	
SAMARQAND VILOYATI MEHMONXONA XO'JALIGIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TURISTLAR OQIMINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1331
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin qizi	
SOLIQ YUKINI HISOBLASH VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILINING METODOLOGIK JIHATLARI	1334
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ: ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ РЕЗЕРВЫ РОСТА И РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ ПЕРСОНАЛА.....	1341
Аминжоновна Вазира Мамасидиковна	
DZYUDOCHILARDA USHLAB OLISH (KUMI-KATA) STRATEGIYASINING MUSOBAQA NATIJALARIGA TA'SIRI.....	1350
Shermatov Gulom Qaxxorovich	
G'AZNACHILIK TIZIMIDA RISKLARNI ANIQLASH VA NAZORAT TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	1357
Xasanov Adiz Xusenovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI HAMDA UNI QISQARTIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR.....	1363
Beknazarov Behzod Baxtiyorovich	
IMPROVEMENT OF THE COMMERCIAL BANK PRIVATIZATION PROCESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	1368
Djumaniyazov Islam Karimbayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SOHASI INVESTITSION VA EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI	1374
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENTI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	1378
Madaminov Bekzod Allayarovich	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA XAVF OMILLARI SHAROITIDA AGRAR BIZNESDA XARAJATLAR TAHLILI VA XATARLARNI BOSHQARISH.....	1383
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINING BOSHQARUVIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI	1387
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ ЭКСПОРТНОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТИВНОЙ ЛОГИСТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ЦЕПОЧКАМИ ПОСТАВОК	1392
Каримова Хулкар Рахманали кизи, Махмутуллова Севинч Хабибулла кизи	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	1399
Norova Nozima Nabiyeвна	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1406
Ahmedova Dilnoza Qalandar qizi	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING EKOLOGIK MUVOZANATINI SAQLASH ORQALI BARQAROR RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI (NAVOIY VILOYATI TAJRIBASI)	1411
Barnoqulova Marjona Otabek qizi	



UDK: 339.944.2

FRANCHAYZING ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI KORXONALAR MAHSULOTLARINI XALQARO BOZORDA ILGARI SURISHDA MERCHANDAYZING DIZAYNI VA VIZUAL MARKETING YONDASHUVLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Xodjayev Anvar Rasulovich

Buxoro davlat universiteti,

iqtisodiyot kafedrası dotsenti, i.f.f.d (PhD)

E-mail: anikxodja1989@gmail.com

ORCID: 0000-0001-8662-759X

Annotatsiya. Mazkur maqolada franchayzing asosida faoliyat yurituvchi korxonalar mahsulotlarini xalqaro bozorlarda ilgari surishda merchandayzing dizayni va vizual marketing yondashuvlarining samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida xalqaro ko'rgazmalar va marketing tadbirlarida brendni samarali taqdim etishning asosiy omillari, jumladan vizual identifikatsiya, interaktiv texnologiyalar, stend dizayni hamda xodimlarning kommunikativ kompetensiyalari chuqur o'rganilgan.

Tadqiqotda Delphi va AHP usullari asosida ekspert baholari tahlil qilinib, merchandayzing elementlarining ustuvorlik darajalari aniqlangan. Olingan natijalar vizual marketing vositalarini tizimli qo'llash brend taniluvchanligini oshirish, mijozlar e'tiborini jalb qilish hamda xalqaro bozordagi raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot yakunida franchayzing korxonalari uchun xalqaro marketing samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: franchayzing, merchandayzing, vizual marketing, brend identifikatsiyasi, xalqaro bozor, stend dizayni, interaktiv texnologiyalar, Delphi usuli, AHP tahlili, marketing strategiyasi.

Abstract. This article scientifically examines the effectiveness of merchandising design and visual marketing approaches in promoting the products of franchise-based enterprises in international markets. The study analyzes the key factors influencing effective brand presentation at international exhibitions and marketing events, including visual identification, interactive technologies, exhibition stand design, and staff communication competencies.

Expert evaluations were analyzed using Delphi and AHP methods to determine the priority levels of merchandising elements and their impact on marketing effectiveness. The findings indicate that the systematic application of visual marketing tools significantly enhances brand recognition, attracts customer attention, and strengthens competitiveness in global markets.

Based on the results, strategic recommendations were developed for franchise enterprises to improve the effectiveness of their international marketing performance.

Key words: franchising, merchandising, visual marketing, brand identification, international market, exhibition stand design, interactive technologies, Delphi method, AHP analysis, marketing strategy.



Аннотация. В данной статье научно обоснована эффективность дизайна мерчандайзинга и визуальных маркетинговых подходов при продвижении продукции предприятий, функционирующих на основе франчайзинга, на международных рынках. В ходе исследования проанализированы ключевые факторы эффективного представления бренда на международных выставках и маркетинговых мероприятиях, включая визуальную идентификацию, интерактивные технологии, дизайн выставочных стендов и коммуникативные компетенции персонала.

На основе методов Delphi и AHP проведен анализ экспертных оценок, в результате которого определены приоритетные элементы мерчандайзинга и их влияние на эффективность продвижения бренда. Полученные результаты показали, что системное использование инструментов визуального маркетинга способствует повышению узнаваемости бренда, привлечению внимания клиентов и усилению конкурентоспособности на международном рынке.

По итогам исследования разработаны стратегические рекомендации для франчайзинговых предприятий, направленные на повышение эффективности их международной маркетинговой деятельности.

Ключевые слова: франчайзинг, мерчандайзинг, визуальный маркетинг, идентичность бренда, международный рынок, дизайн стенда, интерактивные технологии, метод Delphi, анализ AHP, маркетинговая стратегия.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mahsulot va xizmatlarni xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli taqdim etish masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, franchayzing modeli asosida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun bu jarayon nafaqat savdo va foyda bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat, balki brendni global miqyosda tanitish, ishonchli hamkorlar bazasini shakllantirish hamda xalqaro marketing raqobatida barqaror o'rin egallash vositasiga aylanmoqda.

Franchayzing tizimi o'z mohiyatiga ko'ra standartlashtirilgan mahsulotlar, xizmatlar va xizmat ko'rsatish sifati orqali iste'molchi ongida aniq brend tasvirini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ushbu jarayonni samarali tashkil etishda merchandayzing tamoyillari va zamonaviy vizual marketing yondashuvlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro bozorga chiqayotgan franchayzing korxonalari uchun mahsulot va xizmatlarni qanday ko'rinishda, qanday dizayn elementlari va psixologik ta'sir vositalari orqali taqdim etish masalasi strategik jihatdan muhim hisoblanadi.

Zamonaviy marketing konsepsiyalariga ko'ra, mahsulotni ishlab chiqish va uni iste'molchiga yetkazish o'rtasidagi eng muhim bosqichlardan biri bu taqdimot (presentation) jarayonidir. Taqdimot iste'molchining e'tiborini jalb etish, mahsulotga nisbatan ijobiy taassurot shakllantirish hamda xarid qilish motivatsiyasini kuchaytirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, xalqaro ko'rgazmalar, brend festivallari, distribyutorlar bilan uchrashuvlar va eksport forumlari kabi tadbirlarda taqdimot omili kompaniya imijini shakllantiruvchi asosiy elementga aylanadi. Shu sababli, brendlar o'z mahsulotlarini taqdim etishda har bir detalga, jumladan stend dizayni, vitrinalar, ranglar uyg'unligi, yoritish tizimi, brend logotipi va uning joylashuvi, xodimlarning tashqi ko'rinishi, kommunikativ madaniyati hamda umumiy brend muhitini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. Bunday jarayonlarda merchandayzing konsepsiyasi va vizual marketing texnologiyalari asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Merchandayzing mahsulotni optimal tarzda joylashtirish, iste'molchini xarid qilishga undash va brendni esda qolarli qilish maqsadida marketing va dizayn vositalarining kompleks qo'llanilishidir. Vizual marketing esa insonning ko'rish, idrok etish va hissiy qabul qilish jarayonlariga ta'sir etuvchi vizual elementlar — ranglar, grafik belgilar, interaktiv displeylar, raqamli texnologiyalar va boshqa kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladi. Franchayzing modeli doirasida ushbu ikki tushuncha o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, brendning yagona qiyofasini saqlash, turli bozorlarda bir xil brend taassurotini yaratish hamda iste'molchi ongida barqaror brend identifikatsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [1].

Franchayzing modeli bu borada muhim afzalliklarga ega. Chunki franchayzing asosida faoliyat yurituvchi korxonalar xalqaro brend standartlariga asoslangan marketing siyosati, merchandayzing strategiyasi va dizayn talablariga ega bo'ladi. Bu esa ilg'or tajribalarni o'zlashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, amaliyotda ushbu imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanilmayotgan holatlar ham uchramoqda. Jumladan, xalqaro ko'rgazmalarda stend dizaynining oddiy va vizual jihatdan yetarli darajada jozibador emasligi, logotiplarning yetarli darajada yoritilmaganligi, raqamli prezentatsiya vositalarining mavjud emasligi, reklama materiallarining cheklanganligi kabi holatlar kuzatilmoqda. Bu esa franchayzing korxonalarining xalqaro bozordagi marketing samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, ilmiy asoslangan merchandayzing va vizual marketing strategiyalarini ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.



Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, dunyoning yetakchi franchayzing brendlari, jumladan McDonald's, Starbucks, Zara, IKEA, L'Oréal, Hilton va boshqa kompaniyalar vizual marketing va merchandayzing strategiyalariga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu kompaniyalar mahsulotni sotish bilan bir qatorda, iste'molchilar uchun ijobiy brend tajribasini shakllantirishga intiladi. Ranglar uyg'unligi, yoritish tizimi, interaktiv texnologiyalar, professional savdo xodimlari va innovatsion dizayn elementlari orqali iste'molchilar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatiladi. Bunday yondashuvlar savdo hajmini oshirish bilan bir qatorda, brendga nisbatan ishonch, sadoqat va ijobiy imijni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda franchayzing bozori rivojlanish bosqichida bo'lishiga qaramay, xalqaro tajribalarni o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish orqali ushbu sohada yuqori natijalarga erishish mumkin. Buning uchun merchandayzing va vizual marketing strategiyalarini ilmiy asosda ishlab chiqish, dizayn va marketing sohalarida malakali mutaxassislarni tayyorlash, franchayzing korxonalarini xalqaro ko'rgazmalarda faol ishtirok etishga rag'batlantirish, shuningdek, davlat tomonidan grant va subsidiyalar orqali qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Franchayzing modeli asosida faoliyat yurituvchi korxonalar tomonidan mahsulot va xizmatlarni xalqaro bozorlarda samarali ilgari surish masalasi marketing nazariyasi va amaliyotida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, merchandayzing dizayni va vizual marketing yondashuvlari ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'plab ilmiy tadqiqotlarning markazida turadi. Bunda marketingning klassik nazariyalari, zamonaviy vizual kommunikatsiya konsepsiyalari, brend menejmenti hamda iste'molchi xulq-atvori psixologiyasi o'zaro integratsiyalashgan holda o'rganiladi.

Marketing nazariyasining asoschilaridan biri hisoblangan Philip Kotler o'zining "Marketing Management" asarida iste'molchi ongida mahsulotga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish marketing faoliyatining asosiy maqsadi ekanini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, marketing faqat mahsulotni ishlab chiqish va sotish bilan cheklanmaydi, balki brendning umumiy qiyofasini yaratish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Xususan, brend estetikasi, logotip dizayni, vizual elementlar, ko'rgazma taqdimoti, xizmat sifati va xodimlarning kommunikativ madaniyati iste'molchi tomonidan brendni qabul qilish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yondashuv franchayzing korxonalarida merchandayzing dizaynining strategik ahamiyatga ega ekanini asoslab beradi.

Brend qiymatini shakllantirish nazariyasiga muhim hissa qo'shgan olimlardan biri David Aaker hisoblanadi. Uning tomonidan ishlab chiqilgan "Brand Equity Model"ga ko'ra, brend qiymati vizual taniluvchanlik, brend assotsiatsiyasi va brendga sadoqat kabi asosiy komponentlardan tashkil topadi. Aakerning ta'kidlashicha, mahsulotning vizual taqdimoti iste'molchi tomonidan tezkor qabul qilinadi va uning keyingi xarid qarorlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, franchayzing tizimida brend identifikatsiyasini kuchaytirish mahsulotlarni xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli ilgari surishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [7].

Iste'molchi xatti-harakatlarini o'rganish sohasida muhim ilmiy ishlardan biri Paco Underhill tomonidan amalga oshirilgan. Uning "Why We Buy: The Science of Shopping" asarida iste'molchilarning xarid qilish jarayonidagi xulq-atvori va unga ta'sir etuvchi omillar batafsil tahlil qilingan. Muallifning fikriga ko'ra, mahsulot joylashuvi, stend dizayni, yoritish tizimi, ranglar uyg'unligi hamda savdo xodimlarining xulq-atvori iste'molchilarning xarid qilish qarorlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, xalqaro ko'rgazmalarda merchandayzing dizaynining tashrif buyuruvchilarning e'tiborini jalb qiluvchi tarzda tashkil etilishi mijozlarning brend bilan qiziqishi va xarid qilish ehtimolini oshiradi.

Brend menejmenti sohasidagi yana bir muhim ilmiy yondashuv Rita Clifton tomonidan ishlab chiqilgan. Uning "Brands and Branding" asarida brendni boshqarish kompaniyaning umumiy strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Muallifning ta'kidlashicha, franchayzing tizimida brendning yagona identifikatsiyasini saqlash muhim hisoblanadi. Shu sababli, barcha franchayzing filiallarida, jumladan xalqaro ko'rgazmalarda ham merchandayzing dizayni brend standartlariga mos ravishda tashkil etilishi zarur. Shu bilan birga, dizayn elementlarini ishlab chiqishda mahalliy bozor xususiyatlari va iste'molchilarning madaniy jihatlarini ham hisobga olish lozim. Cliftonning fikriga ko'ra, dizayn nafaqat estetik element, balki kompaniyaning qadriyatlarini va strategik maqsadlarini ifodalovchi muhim kommunikatsiya vositasi hisoblanadi [2].

Vizual marketing va iste'molchi tajribasiga asoslangan marketing konsepsiyasini rivojlantirishda Schmitt tomonidan ilgari surilgan "Experiential Marketing" nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvga ko'ra, zamonaviy iste'molchilar faqat mahsulotni emas, balki mahsulot bilan bog'liq bo'lgan umumiy tajribani qadrlaydi. Shu sababli, mahsulot taqdimoti jarayonida interaktiv elementlar, vizual effektlar va innovatsion dizayn vositalaridan foydalanish iste'molchilarning brendga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning brend bilan hissiy bog'lanishini kuchaytiradi. Bu esa merchandayzing dizaynining marketing strategiyasidagi muhim rolini tasdiqlaydi.



Franchayzing tizimining xalqaro rivojlanishiga oid ilmiy tadqiqotlarda ham merchandayzing va vizual marketingning ahamiyati alohida ta'kidlangan. Jumladan, Alon va McKee tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda franchayzing tizimining xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun brend imijini izchil saqlash, vizual marketing strategiyalarini qo'llash hamda merchandayzing elementlarini mahalliy bozor xususiyatlariga moslashtirish zarurligi qayd etilgan. Mualliflarning fikriga ko'ra, franchayzing korxonalarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi ko'p jihatdan ularning marketing va dizayn strategiyalarining samaradorligiga bog'liq [6].

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy manbalar franchayzing asosida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun mahsulot va xizmatlarni xalqaro bozorlarda samarali ilgari surish jarayoni kompleks marketing yondashuvlarini talab qilishini ko'rsatadi. Xususan, merchandayzing dizayni va vizual marketing vositalari brend taniluvchanligini oshirish, iste'molchilarning e'tiborini jalb qilish hamda ularning xarid qilish qarorlariga ta'sir ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariy yondashuvlar tadqiqotning metodologik asosini tashkil etib, franchayzing korxonalarida merchandayzing va vizual marketing samaradorligini baholash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda franchayzing asosida faoliyat yurituvchi korxonalar mahsulotlarini xalqaro bozorlarda ilgari surishda merchandayzing dizayni va vizual marketing yondashuvlarining samaradorligini baholash uchun tizimli va kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish kabi nazariy usullardan foydalanildi.

Empirik tadqiqot doirasida merchandayzing elementlarining ustuvorlik darajasini aniqlash maqsadida Delphi usuli asosida ekspert baholari yig'ildi hamda ularning nisbiy ahamiyati Analitik Ierarxiya Jarayoni (AHP) yordamida baholandi. Olingan natijalar asosida franchayzing korxonalarida vizual marketing vositalarining marketing samaradorligiga ta'siri tahlil qilindi va ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy tadqiqotlarda murakkab va ko'p komponentli tizimlar samaradorligini aniqlashda, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri statistik ko'rsatkichlar mavjud bo'lmagan holatlarda, tajribali mutaxassislar fikriga asoslangan ekspert baholash usullaridan foydalanish yuqori ishonchlilikka ega natijalarni olish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, bunday vazifalarni hal etishda Delphi usuli keng qo'llaniladi. Delphi usuli – bu murakkab muammolar yuzasidan ekspertlarning strukturalashtirilgan va bosqichma-bosqich fikr almashinuvi asosida kelishilgan va obyektiv qarorlar qabul qilishga xizmat qiluvchi ilmiy yondashuv hisoblanadi. Mazkur metod o'z nomini 1950-yillarda RAND korporatsiyasi tomonidan amalga oshirilgan Delphi loyihasidan olgan bo'lib, bugungi kunda iqtisodiyot, marketing, sotsiologiya, axborot texnologiyalari, tibbiyot hamda strategik boshqaruv kabi ko'plab ilmiy sohalarida keng qo'llanilmoqda [3].

Mazkur tadqiqot doirasida Delphi usuli yordamida franchayzing asosida faoliyat yurituvchi korxonalarning xalqaro bozorlarda mahsulot va xizmatlarni taqdim etish samaradorligiga ta'sir etuvchi merchandayzing dizayni va vizual marketing omillari bo'yicha ekspert fikrlari yig'ildi va tizimli ravishda tahlil qilindi. Ushbu metodning tanlanishi vizual marketing samaradorligining ko'p jihatdan subyektiv omillar bilan bog'liqligi bilan izohlanadi. Jumladan, dizaynning jozibadorligi, ranglar uyg'unligi, brend identifikatsiyasi darajasi, interaktiv texnologiyalar qo'llanilishi hamda stend xodimlarining kommunikativ kompetensiyalari kabi omillarni baholashda amaliy tajribaga ega ekspertlarning fikri muhim ahamiyat kasb etadi.

Delphi usulining asosiy ustunligi shundan iboratki, u ekspertlar o'rtasidagi bevosita aloqani cheklagan holda, har bir ishtirokchining mustaqil fikr bildirishini ta'minlaydi. Har bir bosqich yakunida ekspertlarga umumlashtirilgan natijalar taqdim etilib, ularga o'z baholarini qayta ko'rib chiqish imkoniyati beriladi. Ushbu jarayon "fikrlarning konvergentsiyasi" tamoyiliga asoslanadi va natijada ekspert baholarining muvofiqlashtirilgan hamda statistik jihatdan ishonchli yakuniy natijasi shakllantiriladi [8].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, franchayzing korxonalarining xalqaro ko'rgazmalardagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan vizual identifikatsiya elementlarining samarali qo'llanilishiga bog'liq. Xususan, logotip, ranglar uyg'unligi, shriftlar va umumiy dizayn uslubi brendning taniluvchanligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ko'rgazmalarda tashrif buyuruvchilar har bir stend oldida o'rtacha 8–10 soniya vaqt sarflaydi va aynan shu qisqa vaqt ichida vizual obraz mijozda dastlabki taassurotni shakllantiradi. Shu sababli, stend dizayni brendning "vizual vakili" sifatida muhim strategik funksiyani bajaradi.

Tadqiqotning navbatdagi muhim natijasi interaktiv texnologiyalardan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq. Jumladan, QR kodlar, raqamli displeylar, videotaqdimotlar hamda AR/VR texnologiyalari asosida yaratilgan interaktiv elementlar tashrif buyuruvchilarning e'tiborini jalb qilish bilan birga, mahsulot haqida kengroq va chuqurroq ma'lumot olish imkonini yaratadi. Natijada mijozlarning brend bilan o'zaro aloqasi mustahkamlanadi va ularning xarid qilish ehtimoli ortadi [5].



Bundan tashqari, stand xodimlarining kommunikatsion kompetensiyalari ham muhim omil sifatida aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xodimlarning tashqi ko'rinishi, nutq madaniyati, brend haqidagi bilim darajasi va professional xulq-atvori mijozlarda ijobiy taassurot shakllanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Chunki mijoz bilan birinchi bevosita aloqa aynan ushbu xodimlar orqali amalga oshiriladi va bu jarayon mahsulotning umumiy qabul qilinish darajasiga ta'sir etadi.

Shuningdek, ko'rgazma muhiti ham muhim marketing omili sifatida qayd etildi. Xususan, yorug'lik, musiqa, hid va umumiy atmosfera elementlari brendning umumiy qiyofasini boyitadi hamda tashrif buyuruvchilarning hissiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon neyromarketing yondashuvlari asosida insonning hissiy va sezgi tizimiga ta'sir qilish orqali amalga oshiriladi va natijada mijozlarda brendga nisbatan ijobiy emotsional bog'lanish shakllanadi.

Delphi va AHP usullari yordamida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, merchandayzing elementlari alohida-alohida emas, balki yagona integratsiyalashgan tizim sifatida qo'llanilgandagina maksimal samaradorlikka erishish mumkin. Har bir franchayzing korxonasi o'zining strategik maqsadlari, resurs salohiyati va bozor sharoitlaridan kelib chiqib ushbu elementlardan ustuvorlik asosida foydalanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari franchayzing asosida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun xalqaro ko'rgazmalarda merchandayzing dizayni va vizual marketing yondashuvlaridan foydalanish brend taniluvchanligini oshirish, mijozlar e'tiborini jalb qilish hamda xalqaro bozordagi raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim strategik vosita hisoblanishini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, franchayzing modeli asosida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun xalqaro ko'rgazmalarda mahsulot va xizmatlarni samarali taqdim etish zamonaviy merchandayzing dizayni va vizual marketing yondashuvlari asosida tashkil etilgandagina yuqori natijalarga olib keladi. Xususan, vizual identifikatsiya vositalari — logotip, korporativ ranglar va grafik belgilar — tashrif buyuruvchilarning e'tiborini jalb qilishda hamda brendni tez va samarali identifikatsiya qilishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Interaktiv texnologiyalar yordamida mahsulot haqidagi axborotni tezkor, qulay va zamonaviy shaklda taqdim etish imkoniyati esa mijozlar bilan kommunikatsiya samaradorligini oshirish, ularning qiziqishini kuchaytirish hamda savdo natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari stand xodimlarining professional imiji, kommunikativ kompetensiyalari va brend qadriyatlariga sodiqligi tashrif buyuruvchilarning qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Mazkur omillar brendga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, samaradorlikni KPI (Key Performance Indicators) tizimi asosida muntazam baholab borish franchayzing korxonalariga har bir ko'rgazma natijalarini kompleks tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda keyingi marketing strategiyalarini takomillashtirish imkonini beradi. KPI tizimi ko'rgazma samaradorligini nafaqat tashrif buyuruvchilar soni, balki savdo hajmi, brend eslab qolish darajasi, yangi hamkorlik aloqalari soni va mijozlar bilan o'rnatilgan kommunikatsiyalar sifati kabi muhim ko'rsatkichlar asosida baholash imkonini yaratadi.

Umuman olganda, franchayzing modeli asosida faoliyat yurituvchi korxonalar mahsulot va xizmatlarini xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli taqdim etish uchun nafaqat mahsulot sifati, balki uni qanday dizayn asosida, qanday marketing kommunikatsiya vositalari orqali va qanday professional kadrlar ishtirokida taqdim etilayotganiga ham alohida e'tibor qaratishlari zarur. Shu nuqtai nazardan, merchandayzing dizayni va vizual marketing strategiyalari franchayzing korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, brend imijini mustahkamlash va global bozorlarda barqaror pozitsiyani egallashning muhim strategik vositasi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, franchayzing korxonalarining xalqaro ko'rgazmalardagi ishtirokini yanada samarali tashkil etish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Brendning vizual identifikatsiya tizimini mukammal shakllantirish — logotip, ranglar, shriftlar va dizayn elementlarining yagona konsepsiya asosida qo'llanilishini ta'minlash;
2. Zamonaviy interaktiv va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish — raqamli displeylar, QR-kodlar, multimedia taqdimotlar va AR/VR texnologiyalarini joriy etish orqali mijozlar bilan interaktiv aloqani kuchaytirish;
3. Professional stand xodimlarini tanlash va ularning malakasini oshirish — kommunikativ ko'nikmalari rivojlangan, brend qadriyatlarini to'liq tushunadigan va professional marketing kompetensiyalariga ega mutaxassislarni jalb etish;
4. Ko'rgazma maydonida emotsional va estetik muhitni yaratish — yorug'lik, ranglar, vizual elementlar va umumiy atmosfera orqali tashrif buyuruvchilarda ijobiy emotsional taassurot shakllantirish;
5. KPI tizimi asosida marketing samaradorligini monitoring qilish — ko'rgazma natijalarini tizimli baholash, strategik tahlil qilish va kelgusidagi marketing faoliyatini takomillashtirish.



Shunday qilib, tadqiqot doirasida taklif etilgan merchandayzing dizayn yondashuvlari, Delphi va AHP usullari asosida aniqlangan ustuvor omillar hamda olingan ilmiy asoslangan natijalar franchayzing korxonalarining xalqaro marketing strategiyalarini shakllantirishda muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar O'zbekiston franchayzing korxonalarining xalqaro ko'rgazmalardagi ishtirok samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda milliy brendlarning global bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kotler, Ph. Marketing Management. 15th ed. Pearson Education, 2017. 800 p.
2. Aaker, D. A. Building Strong Brands. New York: Free Press, 1996. 380 p.
3. Underhill, P. Why We Buy: The Science of Shopping. New York: Simon & Schuster, 2009. 306 p.
4. Clifton, R. Brands and Branding. London: The Economist, 2010. 288 p.
5. Schmitt, B. Experiential Marketing: How to Get Customers to Sense, Feel, Think, Act and Relate to Your Company and Brands. New York: Free Press, 2012. 224 p.
6. Alon, I., & McKee, D. Towards a Macro Environmental Model of International Franchising. Multinational Business Review, 1999, Vol. 7, No. 1, pp. 76–82.
7. Nurmurodov, J. O'zbekistonda franchayzing tizimining rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021, №4, pp. 122–130.
8. Center for Economic Research and Reforms (CERR). Export Potential of Small and Medium Enterprises in Uzbekistan: Analytical Report. Tashkent: CERR, 2022. 45 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>